
O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi

Prezident tomonidan imzolangan Qonun bilan "O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Ushbu Qonun bilan **intellektual mulk obyektlarining himoya qilinishini tartibga soluvchi** bir qator qonunlarga, shuningdek yuridik shaxslarni ro'yxatga olish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish va litsenziyalash bilan bog'liq bo'lgan ayrim qonunlarning moddalariga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining vakolatlari aniqlashtirilishini nazarda tutuvchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Bundan tashqari "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida Ijtimoiy himoya **yagona reyestrda ro'yxatga olingan shaxslarga**, shuningdek **I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga** davlat xizmatlari markazlari va (yoki) O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni orqali davlat xizmatlari **50%li chegirma** bilan ko'rsatilishi belgilandi.

Qonunning qabul qilinishi intellektual mulk huquqlarining himoya qilinishini kuchaytirishga va ushbu sohada samarali markazlashtirilgan boshqaruvin tizimini ta'minlashga, shuningdek davlat xizmatlari sifatini oshirishga hamda aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Shuhrat Mirzakirov

Jinoyat ishlari bo'yicha O'zbekiston tuman sudining raisi

2024-02-01 15:12:50